

Hakim at-Termiziy



Hakim at-Termiziy (arabcha: ????? ??????? — Hakim at-Termiziy — Toʻliq ismi: Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ibn Hasan ibn Bashir Hakim Termiziy) — muhaddis va mutasavvif.

Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali at-Termiziy(750 - 760 - yillarda, Termiz, - 869, Termiz) - Sharqiy sufizmning mashhur namoyondasi, 80 dan ortiq asarlar muallifi. At-Termiziy chuqur ilm va keng dunyoqarashga ega boʻlgani uchun "Al-Hakim"(dono) degan taxallusni olgan.

Hayoti

Hakim at-Termiziy tarjimai holiga oid maʼlumotlar oʻrta asr arab mualliflaridan Tojuddin Subkiy, Xatib Bagʻdodiy, Ibn Hajar Asqaloniy, Abdurrahmon Sullamiy va boshqalarning asarlarida, shuningdek, allomaning oʻzi yozgan “Badʼu shaʼni Abu Abdulloh” (“Abu Abdulloh ishining boshlanishi”) biografik risolasida keltirilgan. Hakim at-Termiziy qabri ustiga oʻrnatilgan sagʻana bitiklarida ham hayoti haqida baʼzi maʼlumotlar bor. Hakim at-Termiziy yoshlik yillarida oʻz yurtida taniqli olimlardan taʼlim olgan. Ilmini takomillashtirish maqsadida Sharq mamlakatlarining koʻp shaharlarida, jumladan, Balx, Nishopur, Bagʻdod, Makka va Madinada boʻladi. Oʻsha davrning yirik allomalari bilan ilmiy bahs va munozaralarda ishtirok etadi. Hakim at-Termiziy oʻz hayoti toʻgʻrisida oʻzining "Badʼu shaʼni Abu Abdulloh" asarida bayon etganligi Bu asar 1965-yilda Bayrutda Yahyo Ismoil tomonidan olimning "Xatmul avliyo" asari bilan birga chop etilgani bizga maʼlum. Hakim at-Termiziyning tavalludi va vafoti sanalari yozma manbalar hamda hozirgi adabiyotarda turlicha keltiriladi. Baʼzi mualliflar, masalan, Hoji Xalifa "Kashf az-zunun"da Hakim at-Termiziy vafoti yilini milodiy 869-yil deb koʻrsatgan. Allomaning qabr toshida ham shu sana keltirilgan. Hakim at-Termiziy yuz yildan oshiq vaqt umr koʻrganidan kelib chiqilsa, manbalarda ham u 112, 116, yoki hatto 120 yoshgacha umr koʻrgani keltiriladi, u holda alloma I taxminan 750 — 760 yillar oraligʻida tugʻilgan boʻlib chiqadi. Ayni mahalda bundan 30 yil oldin "Al-Hakim at-Termiziy va nazariyyatuhu fil valoyati" asarini yozgan misrlik mashhur olim Abdulfattoh Abdulloh Baraka Hakim at-Termiziy milodiy 820-yilda tavallud topib 112 yil yashab 932-yilda vafot etgan, deb yozgan. Allomaning bolalik va yoshlik yillari

haqida manbalarda batafsil ma'lumot berilmagan. "Tarjimai hol" iga ko'ra, u sakkiz yoshidan boshlab diniy ilmlar bilan jiddiy shug'ullangan, yigirma sakkiz yoshida esa Makkaga haj safariga jo'nagan. Safardan qaytgach, Hakim at-Termiziy sufiylik yo'lini tutgan: xilvatga ketib, nafsi, ammorani yengib, sufiyona risolalarni o'rgangan.

Uning otasi Ali ibn Hasan bilimdon muhaddis olim bo'lgan, ilm izlab Bag'dodga borgan, o'sha davrning taniqli olimlari bilan hadisning turli masalalari borasida ilmiy munozaralarda faol ishtirok etgan. Validai muhtara-masi hamda tog'asi ham hadisi nabaviyyaning durust bilimdonlari hisoblanishgan. Binobarin, Hakim at-Termiziy o'z dunyoqarashiga ulkan ta'sir ko'rsatgan bilimli va ilmiy muhitda voyaga yetgan.

Yozma manbalarda Hakim at-Termiziy ustozlari haqida ishonchli ma'lumotlar keltirilgan. Uning dastlabki ustozlari otasi Ali ibn al-Hasan at-Termiziy bo'lgan. Al-Xotiyb al-Bag'dodiyning "*Tarixi Bag'dod*" asarida bir muncha ma'lumot keltirilgan. Ustozlari orasida Qutayba ibn Sa'id as-Saqafiy al-Balxiy (798 — 888-yillar), Ibn Xib-bonning "Mashxur kishilar to'g'risida kitob" asarida ancha dilbar gaplar aytilgan Solih ibn Abdulloh at-Termiziy, bir qancha vaqt Termiz qozisi bo'lgan Solih ibn Muhammad at-Termiziy, Sufyon ibn Vakiy` (vafoti 860-yil), Hasan ibn Umar ibn Shafiq al-Bahriy (vafoti 840-yil), Ahmad ibn Hadravayh (vafoti 854-yil), Abu Turob al-Naxshabiy, Yahyo ibn Maoz ar-Roziylar (vafoti 875-yil) bo'lishgan.

Hakim at-Termiziy xayoti va faoliyatini tavsiflovchi yozma manbalar ma'lumotiga asoslangan holda uning uzun hayotini quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin.

Birinchi bosqich — sakkiz yoshgacha bo'lgan bolalik yillari. Taassuflar bo'lsinki, uning hayotining bu davri haqida aniq ma'lumotlarga ega emasmiz. Shunday bo'lsa-da, u o'z tengdoshlaridan farqli ravishda, shu yoshga xos turli o'yinlarga ko'ngil ko'ymagan, balki o'zini istiqboldagi ilmiy hayotga tayyorlab borgan — ustozlaridan ko'proq dars olgan, turli ilmlarni (ayniqsa kalom ilmini) o'rgangan, sirli ma'naviy hayotga o'zini chog'lagan, deb aytish mumkin.

Ikkinchi bosqich Hakim at-Termiziyning sakkiz yoshdan yigirma sakkiz yoshgacha bo'lgan hayotini o'z ichiga oladi. Bu davrda u turli shayxlardan bilim o'rgangan. Ilm izlab Sharqning boshqa shaharlariga borgan, Makkada bo'lib, Baytullohni ziyorat qilgan. Hayotining shu davrida u hadis o'rganishga hamda fiqh masalalariga ko'proq e'tibor bergan.

Alloma hayotining uchinchi bosqichida Qur'oni karimni chuqur o'rganish bilan mashg'ul bo'lgan. U kalomullohni, uning mohiyatini chuqur o'rganish, ro'za tutish, ibodat qilish, taqvo va hokazolar bilan shug'ullangan. Al-Antokiyning "Qalb muolajasi" falsafiy-tasavvufiy asari unga ayniqsa qattiq ta'sir ko'rsatgan.

Hakim at-Termiziyning shogirdlari ham ko'p bo'lgan. Bular: Abu Muhammad Yahyo ibn Mansur al-Qoziy (vafoti 960-yil), Abu Ali Mansur ibn Abdulloh ibn Xolid az-Zuhliy al-Hiraviy, Abu Ali al-Hasan ibn Ali al-Jurjoniy, Ahmad ibn Muhammad ibn Iso, Abu Bakr Muhammad ibn Umar al-Hakim al-Varroq, Muhammad ibn Ja'far ibn Muhammad ibn al-Xaysam ibn Umron ibn Burayda va boshqalardir.

Hakim at-Termiziyning ilmiy-ijodiy faoliyati uning boshqa mamlakatlar va shaharlarga sayohati bilan chambarchas bog'liq. U Balxda, Nishopurda bo'lgan, fan va madaniyat yuksak rivojlangan Bag'dodga borgan. Bu shaharlarda u mashxur olimlar bilan uchrashgan, ilmiy munozaralarda qatnashgan. Shunday bo'lsada, Hakim at-Termiziyning ilmiy-ijodiy hayotida uning ona shahri — Termiz juda muhim rol o'ynagan, o'zining asosiy asarlarini alloma shu yerda yaratgan. Uning mav'izayu xutbalari, shuningdek ayrim asarlari va, eng avvalo musulmonlik marosimlari, Allohga oshiqlik, sufiylarning ayrim toifalari, "xotamul anbiyo" bilan bir qatorda bo'lgan "xatmul avliyo" to'g'risida mulohaza yuritilgan "Xatmul-avliyo", "Ilal ash-shari'a" faqihlar va arboblarning ma'lum qismida norozilik uyg'otgan. Hakim at-Termiziy badxohlar ta'qibidan qutulish uchun Balxga, so'ng Nishopurga ketishga majbur bo'lgan. U yerlarda allomani kuvonch bilan kutib olishgan. Keyinchalik u yerlarda tarafdorlari va izdoshlari ko'paygan.

Asarlari

Hakim at-Termiziy qalamiga mansub asarlar soni to'g'risida yozma manbalarda turli raqamlar keltirilgan. Ba'zi mualliflar uning asarlari adadi to'rt yuzga boradi, deyishgan. Biroq ko'pchilik mualliflar uning asarlari soni saksonga yaqin, deb hisoblashadi. Abdulfattox Abdulloh Baraka yozishicha, Hakim at-Termiziyshg to'rt yuz asaridan oltmishga yaqini yetib kelgan. Eng muhimi, bizgacha allomaning ilmiy-ma'naviy merosining asosini tashkil qiluvchi asarlari yetib kelgan. Ular orasidan, eng avvalo, 291 hadisni o'z ichiga oluvchi "Navodir al-usul fi ma'rifat axbor ar-Rasul" nomli asarini ko'rsatib o'tish zarur. Bu asarda Hakim at-Termiziy dunyoqarashi muayyan darajada bayon etilgan. "Navodir al-usul"ning bir qo'lyozma nusxasi Toshkentda, O'zbekiston musulmonlari diniy idorasining kutubxona fondida saqlanadi. Allomaning nashr etilgan boshqa asarlaridan "Kitob haqiqat al-odamiya", "Adab an-nafs"ni sanab o'tish lozim. Hakim at-Termiziy asarlarining katta qismi bizgacha qo'lyozma tarzida yetib kelgan hamda jahondagi turli qo'lyozma fondlarida saklanmoqda. Chunonchi, alloma asarlarining qo'lyozmalari Parij, Qohira, Damashq, Iskandariya, Istanbul va Londonda saqlanmoqda. Parij Milliy kutubxonasida (arab bo'limida 5018-inventar ostida) Hakim at-Termiziyning quyidagi asarlari saqlanmoqda:

1. Kitob as-salot va maqosidiho.
2. Kitob al-hajj va asrorihi.
3. Kitob al-Ehtiyotot.
4. Kitob al-Jumal al-lozim ma'rifatiho.
5. Kitob al-Furuq va man'at-taroduf.
6. Kitob haqiqat al-odamiyya.
7. Kitob Urs al-muvahhadiyn.
8. Kitob al-A'zo val-nafs va yusammo kazalika g'avr al-umur.
9. Kitob Manozil al-ibod min al-ibodati.
10. Kitob al-Aql val-havo.
11. Kitob al-Amsol min al-Kitob vas-Sunna.
12. Kitob al-Manohiy.

Damashqda, az-Zohiriyya kutubxonasida Hakim at-Termiziyning ikki asari va besh risolasi qo'lyozmalari (tasavvuf turkumi, 104-raqami ostida); Misrdagi Iskandariya shahrida uch risolasi (Maktabat al-baladiyya, 3585-raqami ostida) saqlanmoqda. Allomaning Londonda saqlanayotgan asarlari ro'yxatida beshta risola ko'rsatilgan. Qohirada, "Dor al-kutub al-ilmiyya"da "Ilal al-u'budiyya" asarining qo'lyozma nusxasi mavjud. "Kitob as-salot" asarining qisqartirilgan varianti bo'lgan bu risola ko'proq "Ilal ash-shariy'a" nomi bilan mashhur.

Bulardan tashqari, Leypsig va Istanbulda ham uning ba'zi asarlari qo'lyozmalari mavjud. Xakim at-Termiziyning asosiy asarlaridan biri — "Xat-mulavliyo" haqida biroz to'xtab o'tish maqsadga muvofiq. Ko'p vaqtgacha bu asar bizgacha yetib kelmagan, deb hisoblangan. Baxtimizga bu taxmin noto'g'ri bo'lib chiqdi. Parij ilmiy-tadqiqot markazining islom qadriyatlar bo'limi a'zosi Usmon Ismoil Yahyo 1965-yilda Bayrutda "Xatmul-avliyo" ni chop ettirdi. 586 sahifadan iborat bu ulkan nashrga Hakim at-Termiziyning bir necha risolasi, shu jumladan tarjimai holiga oid o'ttiz ikki sahifadan iborat "Bad'u sha'ni Abu Abdullox" asari ilova qilingan. Uncha katta bo'lmagan ayni shu asarga asoslanib Hakim at-Termiziy hayoti haqida haqiqatga birmuncha yaqin ma'lumotlarga ega bo'lin-di. Unda allomaning hayoti, u dastavval padari buzurgvoridan ta'lim olgani, Kufa va Basraga sayohati, Makka ziyorati haqida yozilgan. Ma'lum bo'lishicha,

alloma hadisi nabaviyyani aynan Kufada chuqur o'rgangan ekan. Termizga qaytar ekan, yo'l-yo'lakay Qur'oni karimning ma'lum qismini yod olgan. "Xatmul-avliyo" mazmuni haqida gapiriladigan bo'lsa, 6u asarning asosiy mazmunini valoyatning haqligi, shuningdek uning nubuvvat va risolat bilan bog'lik masalalari tashkil etishini qayd qilish darkor. Risola muqaddima hamda yigirma to'qqiz bobdan iborat. Uning asosiy mazmuni muridning savollariga shayxning bergan javobi tarzida bayon etilgan.

Hakim at-Termiziyning bu asarida valoyat masalalari sufiylik tarixida ilk bor mutlaqo tugal nazariya tarzida tavsiflangan. Bu asar Termiz va Balxda yoyilgan mashhur "xakimiyya" sufiylari uchun sufiylik tarixida o'ziga xos yangi hodisa bo'lgan. Bu ta'limot diniy vasiyatnoma yoki ma'rifiy dastur sifatida xizmat qilgan. "Xatmul-avliyo" sharq musulmonlari dunyoqarashiga kuchli ta'sir qilgan, shunga qaramay, yuqorida ta'kidlanganidek, ayrim faqihlar hamda arboblarda norozilik uyg'otgan.

Hakim at-Termiziyning sufiylik tarixidagi ahamiyati asosan uning risolalari bilan belgilanadi. Ularda "rux" va uning "holati" hamda "harakati" to'g'risidagi, o'zini-o'zi takomil toptirish hamda tuban xatti-harakatlarni jilovlash usullari haqidagi, poklanishga olib keluvchi iztirob va shu kabilar sufiylik ruhiyatining rivojlanishiga ulkan ta'sir ko'rsatdi. Hakim at-Termiziy sufiyona "ma'rifat" ("hikmat")ni inson yetishishi mumkin bo'lgan oliy bilim deb hisoblagan. Bu bilimni u inson qalbidan joy olgan "ilohiy nur" ga o'xshatgan. Shariat qoidalarini sharhlash va qo'llashdan iborat bo'lgan odatiy ilmdan farkli o'laroq "ma'rifat" narsalarning ichki mohiyatini va oxir oqibatda, "ilohiy mohiyatni" anglab yetadi. Ilmni ta'lim jarayonida egallash mumkin bo'lsa, "ma'rifat" Allohning suygan bandalariga nozil qilgan rahmatidir. Ilmni tatbiq etish sohasi hamda vaqti cheklangan, "ma'rifat"ning esa cheki yo'q. Qalbini dunyo mehridan poklagan va Allohga oshiq bo'lganlargina ma'rifatga yetishadilar. Hakim at-Termiziy sufiy valiyarlarni shundaylardan deb hisoblagan. Ular qolgan dindorlardan ayni ma'rifatga yetishganliklari bilan ajralib turishadi.

Avliyo haqidagi sufiyona tasavvurlarni birinchi bo'lib nazariy asoslab, hukuk borasida ularni rusul va anbiyo bilan amalda tenglashtirgan ham, aftidan, Hakim at-Termiziydir. Allomaning risolat va valoyat nisbati, sufiylikdagi avliyolik darajasi to'g'risidagi g'oyalari taniqli olim Ibn Arabiy ijodida o'z rivojini topdi. Ibn Arabiy o'z asarlariga ko'pincha Hakim at-Termiziy risolalaridan katta-katta bo'laklar kiritgan. Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, Hakim at-Termiziy budda-viylik, xristianlik va moniylik ta'limotlaridan xabardor bo'lgani ehtimol. Uning asarlarida shu ta'limotlar ta'sirini ko'rish mumkin. Allomaning chuqur va har tomonlama bilimni e'tirof etgan zamondoshlari unga faxrli al-Hakim — donishmand rutbasini bejiz berishmagan.

2023-08-30 16:24:08